




CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

*2022- yil yanvar-sentabr holatiga ko'ra, dastlabki
ma'lumot*



**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel: 76-225-65-74**


CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI




Asosiy tarkib, foizda



O'sish sur'atlari, foizda





Tarkibiy qism, foizda



Dastlabki ma'lumotlar

Viloyat bo'yicha 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **13 067,8** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 11,5 % ga oshdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 1 045,6 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 145,4 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 12 022,2 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 109,3 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1 978,9 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 125,2 %) tashkil etdi.

Uyushmagan savdo, mlrd. so'm




HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI, mlrd. so'm



Viloyat bo'yicha 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **13 067,8** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **111,5 %** ni tashkil etdi. Viloyatimiz chakana savdo tovar aylanmasida barcha tumanlarda o'sish sur'atlari kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida **92,0 %** kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga va **8,0 %** yirik korxonalar hissasiga to'g'ri keldi.

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Denov tumani 23,2 % ulush bilan 3 033,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni Bandixon tumani 1,1 % ulush bilan 142,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.



CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan viloyatning Qumqo'rg'on (116,0 %), Uzun (115,3 %), Termiz sh. (114,8 %) , Angor (112,7 %) va Jarqo'rg'on (112,1 %) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining ko'payish sur'atlari kuzatilib, eng yuqori ko'rsatkich Qumqo'rg'on da qayd etildi.

	Jami, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, foizda
Surxondaryo viloyati	13067,8	111,5	1045,6	145,4	12022,2	109,3
Termiz sh.	2774,6	114,8	675,5	164,0	2099,1	104,7
<i>tumanlar:</i>						
Oltinsoy	471,3	108,5	6,2	50,4	465,1	110,2
Angor	594,3	112,7	27,3	2,5 m	567,0	109,8
Bandixon	142,8	110,0	2,1	73,4	140,7	110,9
Boysun	562,3	108,4	3,8	37,8	558,5	109,8
Muzrabot	493,0	108,6	4,7	81,4	488,3	109,0
Denov	3033,3	111,2	189,5	2,2 m	2843,8	107,7
Jarqo'rg'on	699,3	112,1	20,3	70,0	679,0	114,2
Qumqo'rg'on	528,9	116,0	6,6	51,1	522,3	118,0
Qiziriq	525,6	111,3	4,7	49,6	520,9	112,6
Sariosiyo	488,3	107,1	6,1	27,9	482,2	111,0
Termiz	249,7	107,3	16,1	49,1	233,6	116,9
Uzun	539,4	115,3	17,8	2,1 m	521,6	113,5
Sherobod	722,5	108,2	25,5	107,0	697,0	108,3
Sho'rchi	1242,5	109,5	39,4	100,3	1203,1	109,8



CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Eng yuqori ulushga ega hududlar, % da



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **45,4 %** ga o'sdi va **1 045,6** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **8,0 %** ulushiga to'g'ri keladi.


Eng past ulushga ega hududlar, % da



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **12 022,2** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **9,3 %** ga ko'paydi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **92,0 %** ni tashkil etdi.

CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, foizda

Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Boysun (**99,3 %**), Qiziriq (**99,1 %**), Muzrabot (**99,0 %**) va Sariosiyo (**98,8 %**) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi **8,0 %** ni tashkil etib, eng katta ulush Termiz shahrida (**24,3 %**), Termiz (**6,5 %**), Denov (**6,2 %**) va Angor (**4,6 %**) tumanlarda kuzatildi.



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Yirik korxonalar


AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

2022- yilning yanvar-sentabr oylari holatiga ko'ra, o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **4 724,1** ming so'mni (2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **9,0 %** ga oshdi) tashkil etdi.


Hududlar kesimida ma'lumot (ming so'mda)

	Hajm, ming so'm	2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan, % da
Surxondaryo viloyati	4 724,1	109,0
Termiz sh	14 458,6	110,8
<i>tumanlar:</i>		
Oltinsoy	2 542,1	106,2
Angor	4 291,0	110,3
Bandixon	1 798,9	107,1
Boysun	4 666,6	106,4
Muzrabot	3 324,5	106,3
Denov	7 517,4	108,5
Jarqo'rg'on	3 056,3	109,7
Qumqo'rg'on	2 152,5	113,6
Qiziriq	4 390,7	109,1
Sariosiyo	2 225,4	104,8
Termiz	3 083,2	105,1
Uzun	2 982,0	112,9
Sherobod	3 550,3	105,9
Sho'rchi	5 655,5	106,9

Eng yuqori hajmga ega hududlar





Eng past hajmga ega hududlar



* Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqorisi Termiz sh (**14 458,6** ming so'm), Denov (**7 517,4** ming so'm), va Sho'rchi (**5 655,5** ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.


UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib, foizda




Viloyat bo'yicha 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1 978,9** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **25,2** % ga oshdi. Shu jumladan, 12-bozor va 12-bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **820,6** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **74,4** %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **1 158,3** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **4,3** %) tashkil etdi.

Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



Eng yuqori ulushga ega hududlar, foizda



2022- yil yanvar-sentabr

UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING SAVDO AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

	Jami, mlrd. so'm	2021- yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2021- yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan, foizda	Chorva (parranda) bozorlari, mlrd. so'm	2021- yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan, foizda
Surxondaryo viloyati	1978,9	125,2	820,6	174,4	1158,3	104,3
Termiz sh.	78,4	139,8	78,4	139,8		
tumanlar:						
Oltinsoy	173,0	114,7	41,2	157,1	131,8	105,7
Angor	98,2	132,2	70,9	176,0	27,3	80,3
Bandixon	94,4	111,0	4,3	80,2	90,1	113,0
Boysun	140,1	113,2	70,2	198,3	69,9	79,1
Muzrabot	223,9	114,4	65,1	168,8	158,8	101,0
Denov	187,6	105,6	108,9	186,2	78,7	66,1
Jarqo'rg'on	126,9	164,9	56,6	202,7	70,3	143,2
Qumqo'rg'on	178,0	163,1	68,6	207,7	109,4	143,8
Qiziriq	141,4	136,5	43,4	212,1	98,0	118,0
Sariosiyo	151,2	107,3	54,9	194,3	96,3	85,5
Termiz	53,8	107,0	9,0	227,1	44,8	96,6
Uzun	126,7	180,9	61,2	159,5	65,5	207,0
Sherobod	50,8	119,1	40,1	124,4	10,7	102,8
Sho'rchi	154,5	124,7	48,0	184,4	106,5	108,8

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida, uy xo'jaligida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida **820,6** mlrd. so'mni, chorva (parranda) bozorlarida **1 158,3** mlrd. so'mni tashkil etdi.

* Xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda


* Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: DEHQON BOZORLARI

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatning barcha tumanlarlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **820,6** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**391,4** mlrd. so'm) to'g'ri keldi.



UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI, mlrd. so'm



2022- yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatning barcha tumanlarlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **1 158,3** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosi **845,5** mlrd. so'mni, qo'y va echkilar **291,2** mlrd. so'mni, otlar **16,0** mlrd. so'mni, parrandalar **5,6** mlrd. so'mni tashkil etdi.

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI




2022- yilning yanvar-sentabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi **2,0 %** ni tashkil etib, **256,0** mlrd. so'mga yetdi va 2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **6,4 %** ga ko'paydi. Bunda jami savdo aylanmasining **95,2 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

	Jami, mlrd. so'm	2021- yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2021- yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2021- yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan, foizda
Surxondaryo viloyati	256,0	106,4	12,2	63,4	243,8	110,2
Termiz sh.	86,5	108,8			86,5	109,1
tumanlar:						
Oltinsoy	7,0	108,1			7,0	108,1
Angor	7,9	113,4			7,9	113,4
Bandixon	1,3	117,5			1,3	117,5
Boysun	5,3	119,5			5,3	119,5
Muzrabot	5,9	113,6			5,9	113,6
Denov	41,1	113,2			41,1	113,2
Jarqo'rg'on	15,4	106,5			15,4	106,5
Qumqo'rg'on	6,4	109,8			6,4	109,8
Qiziriq	5,1	112,2			5,1	112,2
Sariosiyo	10,7	40,1			10,7	110,7
Termiz	24,3	111,7	1,9	132,8	22,4	110,2
Uzun	16,0	284,9	10,3	1642,1	5,7	115,6
Sherobod	14,7	104,6			14,7	104,6
Sho'rchi	8,4	109,8			8,4	109,8


ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

Ulgurji savdo tovar aylanmasi, foizda




Viloyat bo'yicha 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **3 390,2** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan **20,1 %** ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining savdo tovar aylanmasi **918,8** mlrd. so'mni (**41,1 %** ga o'sdi) tashkil etdi.

Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



Eng yuqori ulushga ega hududlar, % da



ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

	Jami, mlrd. so'm	2021- yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2021- yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, mlrd. so'm	2021- yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan, foizda
Surxondaryo viloyati	3390,2	120,1	918,8	141,1	2471,4	113,8
Termiz sh. tumanlar:	993,2	100,2	150,7	66,1	842,5	110,4
Oltinsoy	53,1	101,1	19,6	79,0	33,5	120,8
Angor	70,6	109,9	0,2	47,0	70,4	110,2
Bandixon	16,8	106,3			16,8	108,1
Boysun	43,4	115,0	1,5	102,0	41,9	115,6
Muzrabot	44,5	108,3	27,3	106,7	17,2	110,9
Denov	1042,4	120,6	183,5	124,8	858,9	119,8
Jarqo'rg'on	213,4	111,6	34,8	113,4	178,6	111,2
Qumqo'rg'on	260,1	2,0 m	224,0	2,4 m	36,1	108,2
Qiziriq	21,2	104,0			21,2	108,4
Sariosiyo	89,2	109,0	2,8	128,6	86,4	108,5
Termiz	166,2	113,5	15,1	125,2	151,1	112,4
Uzun	60,4	198,0	26,7	66,3 m	33,7	112,1
Sherobod	80,3	164,6	52,2	2,2 m	28,1	113,2
Sho'rchi	235,4	2,2 m	180,4	3,0 m	55,0	111,0

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik korxonalar Uzun Sho'rchi (**6631,4 %**), Sho'rchi (**304,5 %**), Qumqo'rg'on (**237,7 %**), Sherobod (**217,8 %**) va Sariosiyo (**166,7 %**) tumanlarida kuzatildi.